



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI – JINOYAT PROTSESSIDA SHAXS HUQUQ VA ERKINLIKLARINING GAROVI

Muminov Muzaffar Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida boshlig'i o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent, e-mail: tergovchi_4334@mail.ru, ORCID: 0000-0002-0879-7291;

O'rozmatoeva Elmira Farhod qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11523168>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2024

Accepted: 03th June 2024

Published: 05th June 2024

KEYWORDS

konstitutsiya, jinoyat protsessi, shaxs huquq va erkinliklar, shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, ushlab turish va uning muddatlari, qamoq, Miranda qoidalari, "Habeas corpus akt" instituti, ehtiyot chorasi, tergov harakati, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitish, sanksiya, sud qarori.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq kiritilgan qoidalar, ularning jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlashdagi ahamiyati va huquqiy tahlili bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan.

Konstitutsiya – har bir suveren davlatning huquqiy asoslaridan biri, uning asosiy qonunidir. Unda davlat suvereniteti, shaxs huquq va erkinliklari, jamiyat va hayotining eng muhim jihatlari, davlat hokimyatining tuzilishi bilan bog'liq rahbariy qoidalar o'z aksini topadi. Tarixiy rivojlanish ko'rsatganidek, har qaysi jamiyat kelajakni ko'zlab yashaydi va uning poydevorini mustahkamroq qurishga harakat qiladi. Konstitutsiyani esa ana shu poydevorning birinchi va eng asosiy tamal toshi desak adashmaymiz. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumxalq referendum asosida, 6 bo'lim 27 bob va 155 ta moddadan iborat tarkibda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yangi O'zbekistonning yangicha huquqiy poydevori bo'ldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi jadal rivojlanish davrida barcha demokratik, huquqiy davlatlarda shaxs huquqlarini ta'minlash, ularni ishonchli himoya qilish va kafolatlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu sohada muhim islohotlar amalga

oshirilmoqda. Biroq, jinoyat-protsessual faoliyatda shaxs huquqlarini ta'minlashda bir qator kamchiliklar va muammolar hamon ko'zga tashlanmoqda. Qonunchiligimizdagi ana shu kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizdagi jinoyat ishlarini yuritish jarayonida shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq normalariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ushbu normalar ancha takomillashtirildi. Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi va ushbu bobda fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohadagi asosiy huquq va erkinliklari hamda ularning kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 26, 27, 28, 29, 30 va 31-moddalari bevosita jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, ushbu normalarda xalqaro miqyosda jinoyat protsessida shaxs huquqlarining ta'minlashning kafolati sifatida e'tirof e'tilgan "Miranda qoidalari" hamda "Habeas corpus akt"ga oid qoidalar mustahkamlab qo'yildi [7, c. 255].

Endi Konstitutsiyamizga jinoyat protsessida shaxs huquqlarining ta'minlanishi va kafolatlari bilan bog'liq yangi kiritilgan hamda to'ldirilgan qoidalarni tahlil qilsak.

O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasida "Miranda qoidasi" hamda "Habeas corpus akt"ga oid qoidalar va ularning tahlili.

"Miranda qoidasi" – Amerika Qo'shma Shtatlaridagi qonuniy talab, hibsga olinayotgan shaxsga, gumon qilinuvchiga u so'roq qilinishidan oldin ularning huquqlarini tushuntirish bilan bog'liq majburiy qoida bo'lib bugungi kunda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda hamda ko'plab davlatlar konstitutsiyasi va qonunlariga umume'tirof etilgan qoida sifatida kirib borgan. Ushbu qoidalarga mamlakatimiz huquq tizimida ham rioya etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida sukut saqlash huquqi belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Boshqacha aytganda, "Miranda qoidasi" qonunchiligimizda sukut saqlash yoki hech qanday ko'rsatma bermaslik huquqi shaklida o'z ifodasini topgan. Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasidan tashqari, 46 va 48-moddalarida ham shaxs o'ziga qo'yilgan ayblov yoki gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatmalar berish yoxud ko'rsatmalar berishdan bosh tortishga haqli ekani belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur moddalar bo'yicha gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi ko'rsatmalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ham ega. Mamlakatimizda ham xuddi "Miranda qoidasi"dagidek gumonlanuvchi o'z advokati bilan bog'lanishi yoki advokat yollashga imkoniyati bo'lmasa, davlat tomonidan advokat tayinlanishi huquqidan foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib "Miranda qoidasi" amaldagi milliy qonunchiligimizda to'la aks etgan bo'lib, lekin uning mazmuni Jinoyat-protsessual kodeksi moddalari orasiga "sochib" yuborilgan edi. Mazkur qoida birinchi navbatda inson huquqiga daxldorligi uchun ham u yaxlit holda hamda konstitutsiyaviy darajaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shu sababli yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda "Miranda qoidasi"ga oid qoidalar yaxlit holatda jamlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining aybsizlik prezumpsiyasi bilan bog'liq 28-moddasi: *Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi, hech kim o'ziga*

va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga egaligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas"ligi bilan bog'liq qat'iy qoidalar bilan to'ldirildi.

Shuningdek Konstitutsiyamizning 29-moddasiga ko'ra: Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega [6, c. 75; 7, c. 174].

Habeas corpus akt. "Habeas corpus" (lot. habeas corpus) – shaxs daxlsizligi tamoyili bilan chambarchas bog'liq ingliz jinoiy-protsessual huquqiy institut bo'lib, jinoiy ta'qibga uchragan shaxsning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi hisoblanadi.

Ma'lumki jinoyat protsessida protsess ishtirokchilariga qo'llaniladigan ayrim ehtiyot choralarini: qamoq va uy qamog'i natijasida shaxsning erkinlik huquqi, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitish va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash kabi tergov harakatlari natijasida fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqi ma'lum darajada cheklanadi yoki buziladi. Habeas corpus akti yuqorida sanab o'tilgan jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash bilan bog'liq harakatlarga faqatgina sud tomonidan sanksiya berilishi sifatida namoyon bo'ladi.

2005-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi PF-3644-son farmoni bilan jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi 2008-yil 1-yanvardan boshlab sudlar vakolatiga o'tkazilib, ushbu ehtiyot chorasi qonunda belgilangan boshqa ehtiyot choralari qo'llash samarasiz bo'lgan alohida holatlarda va faqat jinoyat ishlari bo'yicha sudlar yoki harbiy sudlar vakolatiga muvofiq ularning qarori bo'yicha amalga oshirilishi lozimligi belgilan edi. Biroq, shaxslarning yuqorida qayd etib o'tilgan shaxsiy daxlsizlik va turar joy daxlsizligi kabi huquqini cheklash bilan bog'liq bo'lgan tintuv, telefon va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish kabi tergov harakatlari prokuror sanksiyasi asosida amalga oshirilib kelayotgan buni esa jinoyat protsessida shaxslarning huquq va erkinliklarini shu jumladan "Habeas corpus akt"ga oid adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqlarining cheklanishi sifatida e'tirof etishimiz mumkin edi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda ushbu kamchiliklar bartaraf etilib, 30-moddasida hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emasligi, 31-moddada har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta,

elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega bo'lib ushbu huquqlarning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi belgilandi. Shuningdek 31-moddaga kiritilgan yangi qoida asosida uy-joyda tintuv o'tkazishga ham sud qarori asosida yo'l qo'yiladi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak jamiyatda "Miranda qoidasi"ning konstitutsiyaviy darajada belgilanishi birinchi navbatda fuqarolarni mazkur qoidadan xabardor bo'lish imkoniyati kengaytirganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki barcha fuqarolar jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan jinoyat protsessidagi huquqlarini o'qib ko'rmasada konstitutsiyadagi asosiy huquqlaridan albatta xabardor bo'ladi. Shunday ekan fuqarolarning kodekslarda, qonunosti hujjatlarda belgilangan huquqlarining asosiy qonunimizda aks ettirilishi bir tarafdin jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashadi va mazkur yo'nalishdagi huquqiy islohotlarning barchasi ijtimoiy hayotda inson qadri, xalq manfaatlarini amalda ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 161-moddasida belgilangan tintuv o'tkazish tartibidagi ushbu tergov harakati surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga binoan, prokurorning sanksiyasi bilan o'tkazilishi haqidagi va 170-moddada belgilangan telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish surishtiruvchining, tergovchining prokuror tomonidan sanksiya berilgan qaroriga asosan o'tkazilishi belgilangan qoidalarni konstitutsiyamizning 31-moddasi normalariga asosan "sud qaroriga asosan o'tkaziladi" ko'rinishida talqin qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son) <https://www.lex.uz/docs/6445145>. (Murojaat vaqti 07.12.2023)
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son. <https://www.lex.uz/docs/111460#253744>. (Murojaat vaqti 07.12.2023)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sonli farmoni;
5. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / yuridik fanlar doktori, professor M.A.Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, – 2019.
6. 2005-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida" gi PF-3644-son farmoni.
7. Муминов М. (2022). Жиноят-процессуал қонунчилигига далилларни расмийлаштириш жараёнида электрон маълумотлардан фойдаланишни жорий этиш истиқболлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2 (12 Special Issue), 254–256. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/9229>

8. Муминов М., Жўрабоева Р. (2022). Тергов ҳаракатларини видеоконференцалоқа режимида ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2 (12 Special Issue), 172–177. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/9212>

